

Jo'rayeva Marjona Baxtiyor qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi

2- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sotsiolingvistik tadqiqot metodlari va ularning haqida ma'lumotlar keltirilgan. Sotsiolingvistik metodlarning o'z ichiga yana bir nechta tarkibiy qismlari borligi va ularning vazifalari haqida ham fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *sotsiolingvistik metodlar, manba to'plash metodlari, kuzatish metodi, so'rovnama metodi, yozma manbalarni umumilmiy tahlil metodi, og'zaki so'rovlar, testlar.*

Sotsiolingvistlar – ma'lum bir jamiyat a'zolarining tildan foydalanishi va tilning shakllanib borishidagi o'zaro munosabatlarni o'r ganuvchi soha vakillari hisoblanadi. Sotsiolingvistlar ma'lum hududga xos bo'lgan tilni aniqlashi va o'zi uchun kerakli xulosalar chiqarishi uchun turli xil usullardan foydalanadi. Ya'ni sotsiolingvistikating o'ziga xos, umummilliy nazariyalarida tadqiqot metodlari mavjud bo'lib, sotsiolingvistlar shu orqali o'z ishlarida tajribalar olib boradilar. Jumladan, sotsiolingvistik tadqiqot metodlariga quyidagilar kiradi:

- “1) manba (material) to'plash metodlari;
- 2) materialni qayta ishlash metodlari;
- 3) olingan ma'lumotlarni haqqoniyligi.

Birinchi guruhda sotsiologiya, sotsiol psixologiya va qisman dialektologiyaga taaluqli bo'lgan metodlar, ikkinchi va uchinchi guruhdagilarga matematik statistika metodlari salmoqli o'r in egallaydi”.³² Demak, bu metodlar quyidagi fanlarni o'z ichiga oladi:

Sotsiologiya – (lotincha, “socius” – jamiyat, yunoncha, “logos” – bilim, ta'lif, tushuncha) jamiyat hayoti, jamiyat haqidagi tushunchalar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'r ganadigan fan.

Sotsiol psixologiya – inson psixologiyasi bilan bog'liq bo'lib, ommaviy hodisalarni o'r ganuvchi fan hisoblanadi.

Dialektologiya – tilshunoslik sohasi. Bunda, asosan, tilning sheva va lahjalariga doir ma'lumotlar o'r ganiladi.

Manba to'plash metodi mutaxassislar tomonidan ma'lum hududga borib aynan o'sha xalqning til nuqtai nazaridan rivojlangani yoki ayrim so'zlarning boshqacha talaffuz etilishi kabi jihatlarini o'r ganishdir. Bu metod, asosan, kuzatish, so'rovnomalar va testlar orqali amalga oshiriladi.

³² Sh. Usmanova, N. Bekmuxammedova, G.Iskandarova. “Sotsiolingvistika”. Toshkent. “Universitet” – 2014. 72-bet.

Yozma manbalarni umummilliy tahlil metodidan foydalanganda yuqoridagi metodlar o‘zaro qorishtirib yuboriladi. Masalan, bir yozma manbani o‘rganish uchun dastlab, u o‘rganib chiqiladi, undan taxminlar olinadi. Taxminlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini isbotlash uchun manbada keltirilgan xalq bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, ularning hayot va yashash tarzini kuzatib borishi lozim. Xulosalarni yanada mustahkamlash uchun jamiyat a‘zolaridan so‘rovnama va testlar o‘tkaziladi.

Sotsiolingvistlarning boshqa hududlarga borib, kuzatish metodlaridan hamda so‘rovnama va testlar o‘tkazishi oson kechmaydi. Chunki, tahlil qilinayotgan jamoa a‘zolari ularga begonadek munosabatda bo‘lishi va o‘z yashash tarzi bilan bog‘liq axbarotlarni tanimaydigan kishi bilan bo‘lishishi ularga yoqmasligi mumkin. Ularning kelib, ma’lumot so‘rashi ularda shubha uyg‘otishi mumkin. Shu sababli sotsiolingvistlar o‘z sohasini mukammal bilishi bilan birga, xalqlarning kelib chiqishi, insonning psixologiya, muomala madaniyatidan ham xabardor bo‘lishi lozim. Ular jamoa bilan do‘stona munosabatda, muloyimlik bilan o‘zini tutib olgan holda muloqotda bo‘lishi foydadan xoli emas.

Ba’zi millat yoki xalq chetdan kelgan insonga o‘zlarining sir-asrorlarini aytishni yoqtirmaydi. Bunday holatda kuzatuvchi o‘sha jamoa turmush tarzini o‘rganishi va unga moslashishi kerak, ya’ni o‘zini oshkor qilmasligi lozim.

““Oshkor qilish” omadsizlikka olib keladi, ba’zi hollarda, hatto, kuzatuvchi hayotiga tahdid solishi ham mumkin. Bunga quyidagi misollarni keltirish mumkin. Ikki yevropalik etnograf darveshlarning turmush tarzi, xulq-atvori va tilini o‘rganish maqsadida ko‘chmanchi musulmonlarga qo‘shilib, ular orasida o‘zlarini

xuddi darveshlardek tutishgan. Darveshlar ham olimlarni “o‘ziniki” deb qabul qilishgan. Biroq olimlarning musiqiy ohangga oyoqlarini g‘ayriixtiyoriy qimirlatib o‘tirishlari ularnii fosh qilib qo‘ygan, chunki bunday odat darveshlarga xos bo‘lmagan”.³³

Kuzatuvchilar, kuzatilayotgan insonning nutqiy materiallarini tezlikda yozib olishi zarur. Buni, asosan ikki usuli mavjud bo‘lib, qo‘lda yozib olish qulayroq, biroq audio variantda yozib olish samaraliroq.

Qo‘lda yozganda ma’lum bir tilga xos xususiyatlarni bir so‘zda yozib qo‘yish kifoya. Biroq, umumiyligi muloqot, ularning aniq, Ravshan, talaffuzi tahlili kerak bo‘lganda, albatta, diktofonda yozib olish yoki videoga tushirib olish yaxshiroq.

“Sotsiolingvistikada anketalashtirish, og‘zaki so‘rovlar, testlar va ma’lumotlar to‘plashning boshqa usullari ham keng qo‘llaniladi. Bu usullar tilni egallashdagi ma’lum qonuniyatlarni aniqlashtirish va shu tilda so‘zlashuvchilarning u yoki bu muloqot sharoitlarida til qo‘llashlarini tekshirishga qaratilgan”.³⁴

³³ Sh. Usmanova, N. Bekmuxammedova, G. Iskandarova. “Sotsiolingvistika”. Toshkent. “Universitet” – 2014. 74-bet.

³⁴ Sh. Usmanova, N. Bekmuxammedova, G. Iskandarova. “Sotsiolingvistika”. Toshkent. “Universitet” – 2014. 74-bet

Turli xil metodlardan foydalanib olingen natijalar umumlashtiriladi. Ularni turli xil jadvalga solib, matematik-statistik bahosi o‘rganilib chiqiladi. Va so‘ngida tadqiqotchi til egalarining xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistlar ma’lum ijtimoiy guruhning tiliga xos jihatlarini o‘rganishi oson kechmaydi. Shuning uchun ular bir nechta metod usullaridan foydalanishi samaraliroq natija beradi. Kuzatuv jarayonida ularning oldiga kimdan ma’lumot olish, qaysi metoddan foydalanish, to‘plangan ma’lumotlarni qay tarzda tahlil qilish kabi qator vazifalar turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Sh. Usmanova, N. Bekmuxammedova, G.Iskandarova. “Sotsiolingvistika”. Toshkent. “Universitet” – 2014.
2. Nauchniyimpuls.ru.Sotsiolingvistika va lingvistik tadqiqot metodlari
3. <https://tsul.uz/sotsiolingvistika>
4. berdialiye Abduvali. “O‘zbek sinxron sotsiolingvistikasi”. Toshkent – 2019.